

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.uz>



KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lrim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

- TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI
(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

- RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN
QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSH VA YEVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'ychiyeva Dilnoza

- ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Horov Shukrat

- ISTORICHESKIY ANALIZ FORMIROVANIE EKOLOGICHESKOGO KULTURY SREDI
MOLODEZHI 20-25

Bazarbayeva Nilufar

- O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

- KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Kayyibekov Parahat

- COVERSHENSTVOWANIE UPRAVLENIA AUTOMOBILNYMI TRANSPORTNYMI
USLUGAMI V UZBEKİSTANE 35-41

Ibragimov Jakhongir

- SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSİYALARINI JORİY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM
O'ZGARİSHLARI TA'SİRİNİ BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

- GLOBAL O'ZGARİSHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

- ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

- BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

- HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER
CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

- TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feroza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSİYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'YI INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджibaева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbanov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH 105-107

SUN'YI INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI

Shomurodov Sanjar Ilhomovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: greatsanjar@gmail.com

Tel: +998 97 139 22 13

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda sun'iy intellekt (SI) tomonidan yaratilgan mahsulotlarning mualliflik huquqi bilan huquqiy muhofazalanishi muammolari xalqaro yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Xitoyning yondashuvlari o'rganilib, mavjud farqlar huquqiy fragmentarlikka sabab bo'layotgani ko'rsatib beriladi. WIPO va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning pozitsiyasi ham tahlil qilinib, yagona konvensiya zarurati asoslanadi. Tadqiqot SI mahsulotlarini huquqiy jihatdan muvofiqlashtirish, inson ijodiy ishtiroki mezoni, javobgarlik va huquqiy aniqlik masalalariga e'tibor qaratadi. Xulosa o'rnida, global texnologik taraqqiyot va mualliflik huquqining barqarorligi o'rtaida muvozanatni ta'minlash uchun xalqaro miqyosda yagona konvensiya ishlab chiqish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mualliflik huquqi, xalqaro konvensiya, inson ijodi, huquqiy maqom, WIPO, SI huquqi, javobgarlik.

THE NEED FOR A UNIFIED INTERNATIONAL CONVENTION ON LEGAL HARMONIZATION IN THE PROTECTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE PRODUCTS

Shomurodov Sanjar Ilhomovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Toshkent, O'zbekiston

Annotation. This thesis analyzes the legal challenges related to the copyright protection of products created by artificial intelligence (AI) through the lens of international legal approaches. The models adopted by the United States, European Union, United Kingdom, and China are examined to reveal the inconsistencies contributing to legal fragmentation. The positions of international organizations such as WIPO and UNESCO are also evaluated, and the necessity of a unified convention is substantiated. The research emphasizes the need for legal alignment in regulating AI-generated content, the criteria of human creative involvement, liability issues, and legal clarity. In conclusion, the thesis proposes the adoption of a single international convention to ensure a balance between technological progress and the stability of copyright law.

Key words: Artificial intelligence, copyright, international convention, human creativity, legal status, WIPO, AI law, liability.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-17>

KIRISH

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi mualliflik huquqi tizimida yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, SI tomonidan yaratilgan ijodiy mahsulotlarning mualliflik huquqi bilan qamrab olinishi masalasi turli yurisdiksialarda turlicha yondashuvlar asosida hal qilinmoqda. Bu esa global miqyosda huquqiy fragmentarlikni kuchaytirib, texnologik taraqqiyot va huquqiy barqarorlik o'rtaisdagi muvozanatga putur yetkazmoqda.

An'anaviy mualliflik huquqi faqat inson ijodiy faoliyatiga asoslanadi. Biroq zamonaviy SI tizimlari inson aralashuvlisiz ham original kontentlar yaratmoqda, bu esa "inson ishtiroki"

mezonini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. AQShda SI mahsulotlari huquqiy himoyadan mahrum etilayotgan bo'lsa, Buyuk Britaniya va Xitoyda ularni bilvosita himoya qilish modeli shakllangan. Yevropa Ittifoqi esa inson ijodiy nazorati ustuvorligini saqlab qolmoqda.

Tadqiqotning dolzarbli shundaki, hozirgi yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlar SI mahsulotlari bo'yicha global kelishuv yo'qligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ushbu ishning maqsadi — sun'iy intellekt mahsulotlarini muhofaza qilishda huquqiy muvofiqlikni ta'minlaydigan yagona xalqaro konvensiya zaruratini asoslab berishdan iborat.

ASOSIY QISM

AQSh sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga mualliflik huquqini taqdim etish borasida eng qat'iy antropotsentrik (inson markazli) yondashuvni qo'llamoqda. AQSh Mualliflik huquqi idorasi (U.S. Copyright Office) o'zining "Compendium of U.S. Copyright Office Practices" hujjatining 3-tahririda (2021) shunday deydi: "Mualliflik huquqi faqat inson ijodi asosida yaratilgan asarlarga beriladi" (§306) [1; B. 28]. Bu pozitsiya amaliyotda ham mustahkamlangan. 2023-yilda ko'rib chiqilgan "Thaler v. Perlmutter" ishida sud sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan "A Recent Entrance to Paradise" asariga nisbatan mualliflik huquqini rad etdi. Sud qarorida inson ijodi va ongli tanlov mualliflik huquqi uchun zarur shart sifatida belgilandi [1; B. 45]. Shunga o'xshash yondashuv "Zarya of the Dawn" ishi doirasida ham namoyon bo'ldi, unda komiksda ishlatilgan Midjourney orqali yaratilgan tasvirlarga mualliflik huquqi berilmadi [1; B. 47]. AQShda bunday qat'iy insoniy mezonlar asosidagi yondashuv olimlar tomonidan tanqid qilinmoqda. Masalan, J. Grimmelmann "kompyuter tomonidan yaratilgan asar degan narsa aslida mavjud emas" degan g'oyani ilgari suradi va mualliflik huquqining ijtimoiy-huquqiy mohiyatini faqat inson faoliyatiga bog'liq deb ta'riflaydi [2; B. 155]. Eduard Lee esa inson markazli modelning zamonaviy SI texnologiyalariga mos kelmasligini ta'kidlaydi [3; B. 114].

Yevropa Ittifoqi huquqiy tizimi SI mahsulotlariga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan yondashadi. Asosiy tamoyil — "author's own intellectual creation" (AOIC) — bu muallifning intellektual tanlovi va ijodiy erkinligi orqali yaratilgan asar himoyalanishi mumkin degan yondashuv. Bu pozitsiya Yevropa Ittifoqi Sudining "Infopaq v. Danske Dagblades Forening" ishida tasdiqlangan [4; B. 30]. 2020-yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "White Paper on Artificial Intelligence" hujjatida SI vositasi orqali yaratilgan mahsulotlar inson nazorati ostida bo'lsa, u holda ularni muhofaza qilish mumkinligi bildirilgan [4; B. 42]. Yevropa Parlamentining "AIDA" tashabbusi ham SI mahsulotlarida inson ijodiy ishtirokini huquqiy shart sifatida belgilaydi [4; B. 51]. "Getty Images v. Stability AI" (2023) ishi ham bu masalada muhim holat bo'ldi. Unda Stability AI tomonidan Getty tasvirlaridan ruxsatsiz foydalanilgani ayblov sifatida ilgari surildi. Sud jarayonida mualliflik huquqiga ega bo'lgan asarlarning SI tomonidan o'qitish jarayonida ishlatilishi, ularning qonuniyligi va "fair use" (adolatli foydalanish) doirasidan chiqib ketganligi muhokama qilindi [4; B. 53]. Bu, o'z navbatida, inson tomonidan yaratilgan kontent va SI mashqlari o'rtasidagi huquqiy chegaralarni aniqlash muhimligini ko'rsatdi.

Buyuk Britaniyada 1988-yilgi "Copyright, Designs and Patents Act" (CDPA) orqali "kompyuter tomonidan yaratilgan asar" tushunchasi qonuniylashtirilgan. Qonunning 9(3)-bandiga ko'ra, agar asar insonsiz, ya'ni kompyuter tomonidan yaratilgan bo'lsa, "ishga buyruq bergen shaxs" muallif deb tan olinadi [4; B. 63]. Bu modelda inson ijodiy niyat emas, balki boshqaruv va buyruq asosida muallif sifatida e'tirof etiladi. Britaniyalik tadqiqotchi Luk

MakDonah bu yondashuvni eskirgan deb hisoblab, SI hozirda shunchaki ijroga emas, balki mustaqil yaratuvchilik darajasiga yetganini ta'kidlaydi. U zamonaviy qonunchilikda inson va SI o'rtaqidagi ijodiy hamkorlikni huquqiy e'tirof etish zarurligini ilgari suradi [4; B. 66].

Xitoyda Beijing Internet Court tomonidan 2019-yilda ko'rilgan "Tencent v. Shanghai Yingxun" ishida "Dreamwriter" algoritmi yaratgan maqola mualliflik huquqi bilan himoyalandi. Sud bu asarda dasturchining ijodiy hissasi mavjudligini asos sifatida keltirdi [4; B. 71]. 2020-yildan kuchga kirgan Xitoy Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunida SI bevosita tilga olinmagan bo'lsa-da, huquqiy sharhlarda inson tomonidan yaratilganlik asosiy shart sifatida ko'rsatilgan [4; B. 73]. Xitoy olimi Vang Yong SI mahsulotlari faqat inson tomonidan dasturlashtirilgan va boshqarilgan taqdirdagina muhofazaga loyiq, deb hisoblaydi [4; B. 75].

Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) 2020-yilda e'lon qilgan "Artificial Intelligence and Intellectual Property" hisobotida SI va intellektual mulk huquqlari o'rtaqidagi murakkabliklarga e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, mavjud xalqaro mualliflik huquqi tizimlari SI mahsulotlariga mos emas va global konsultatsiyalar zarur [4; B. 81]. WIPOning pozitsiyasi inson ijodining huquqiy maqomini ustuvor deb biladi, ammo Siga nisbatan xalqaro konsensus zarurligini tan oladi [4; B. 83]. UNESCO tomonidan 2021-yilda qabul qilingan "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence" hujjatida SI mahsulotlarining madaniy va axloqiy o'lchovlari muhim deb belgilangan [4; B. 85]. Bu hujjat SI texnologiyalarining inson huquqlari, madaniy meros va axloqiy normalarga zid bo'lmasligini ta'minlashga qaratilgan. UNESCO, shuningdek, insonning javobgarligi va avtomatlashtirilgan qarorlar ustidan nazoratni saqlash prinsipini ilgari suradi [4; B. 86]. Bugungi kunda sun'iy intellekt mahsulotlariga nisbatan mavjud huquqiy yondashuvlar bir-biridan keskin farq qilmoqda. Bu esa xalqaro savdoda noaniqlik, intellektual mulk himoyasida zaiflik va texnologik taraqqiyotda huquqiy to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. WIPO o'z hisobotlarida bu holatni "global muvofiqlik uchun tahdid" deb baholaydi [4; B. 88].

Hozirgi mualliflik huquqi tizimlarida inson ijodiy ishtiroki zaruriy shart sifatida ko'rildi. Biroq SI o'z faoliyatida mustaqil yaratuvchanlik ko'rsatgan hollarda bu model yetarli bo'lmay qolmoqda. Yangi yondashuv sifatida "vositali mualliflik" modeli ilgari surilmoqda. Bu modelga ko'ra, SI tomonidan yaratilgan mahsulotlar uchun inson ijodiy nazorati yoki dasturlash orqali bilvosita mualliflik e'tirof etiladi [3; B. 119]. Bu Yevropa Ittifoqidagi ayrim ilmiy doiralarda qo'llab-quvvatlanmoqda [2; B. 171]. Yagona xalqaro konvensiya ishlab chiqilmasa, SI mahsulotlarining xalqaro muomaladagi huquqiy maqomi turlicha bo'lib qolaveradi. Bu esa investorlar, yaratuvchilar va foydalanuvchilar uchun yuridik noaniqliklar tug'diradi. Kelajakda qabul qilinadigan konvensiyada nazarda tutilishi lozim bo'lgan asosiy prinsiplar sifatida esa quyidagilar ko'rildi:

- Inson aralashuvi va ijodiy rahbarligi mavjud bo'lishi kerak;
- Javobgarlik mexanizmlari aniq belgilanishi lozim;
- Har bir yurisdiksiyada minimal huquqiy himoya darajasi kafolatlanishi kerak;
- "Vositali mualliflik" modeli xalqaro mezon sifatida tan olinishi lozim [4; B. 90].

Ushbu prinsiplar xalqaro konvensiya loyihasining asosini tashkil etishi mumkin bo'lib, sun'iy intellekt asosidagi ijod mahsulotlarining adolatli va barqaror huquqiy muhofazasini ta'minlaydi.

XULOSA

Sun'iy intellekt mahsulotlarining huquqiy maqomi bo'yicha olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, dunyo davlatlari ushbu masalaga nisbatan turlicha va ba'zan qarama-qarshi yondashuvlarga ega. AQShda inson omili mualliflik huquqining ajralmas sharti sifatida qat'iy talab etilayotgan bo'lsa, Buyuk Britaniya ushbu huquqni kompyuter tomonidan yaratilgan asarlarga nisbatan ham cheklangan ko'rinishda tan olmoqda. Yevropa Ittifoqi esa ehtiyyotkorlik bilan inson ijodiy ishtirokini huquqiy himoya talabi sifatida mustahkamlamoqda. Xitoy modeli esa insonning dasturlashdagi roli va boshqaruv mezonlarini asosiy nuqta sifatida ilgari surmoqda. Mazkur farqliliklar global miqyosda huquqiy fragmentarlikni yuzaga keltirib, sun'iy intellekt mahsulotlarining xalqaro savdosi, mualliflik huquqining e'tirofi va texnologik innovatsiyalarning huquqiy muhofazasida turli noaniqliklar va nizolarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, zamonaviy texnologik taraqqiyot, intellektual mulk himoyasi va huquqiy barqarorlik o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash maqsadida yagona xalqaro konvensiya ishlab chiqilishi zarur. Bunday konvensiya sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan mahsulotlarga oid mualliflik huquqi, vositali mualliflik konsepsiysi, javobgarlik mexanizmlari va minimal huquqiy himoya standartlarini belgilab beradi. Bu esa global huquqiy anqlik, iqtisodiy xavfsizlik va madaniy manfaatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) va UNESCO tomonidan ilgari surilgan normativ va axloqiy yondashuvlar bunday xalqaro konvensyaning konseptual tayanchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ularning tavsiyalarida ilgari surilgan inson markaziy roli, axloqiy mezonlar va algoritmik mas'uliyat prinsiplari bo'lajak huquqiy hujjatning asosiy qoidalariga aylanishi lozim. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt mahsulotlarini xalqaro huquq doirasida samarali himoya qilish, kelgusidagi huquqiy nizolarning oldini olish va texnologik taraqqiyotga moslashuvchan huquqiy mexanizm yaratish uchun xalqaro darajadagi keng qamrovli kelishuv — yagona konvensiya — zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Compendium of U.S. Copyright Office Practices: Third Edition. – Washington: U.S. Copyright Office, 2021. – 370 b.
2. Grimmelmann J. There's No Such Thing as a Computer-Authored Work // Columbia Journal of Law & the Arts. – 2020. – T. 44, №2. – B. 145–180.
3. Lee E. Human Authorship and the Future of AI // Georgetown Law Journal. – 2021. – T. 109, №1. – B. 97–122.
4. WIPO. Artificial Intelligence and Intellectual Property: Issues Paper. – Geneva: World Intellectual Property Organization, 2020. – 108 b.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.